



MARK TVEN YUMORISTIK ASARLARI TARJIMASIDA MUROJAAT SHAKLLARINING BERILISHI

Толибжанов Бахромжон Махмудханович
Наманган давлат университети
Ўқитувчи

Аннотация: Мақолада асарлар таржимаси халқларининг ўзаро алоқасини мустаҳкамлаши, бир халқ томонидан яратилган маданий меросни иккинчи халққа таништириши ҳақида фикр юритилган. Унда М.Твен асарлари матни тилини ўзбек тилидаги таржимаси билан қиёсланган, ҳамда таржимадаги ютуқ ва баъзи бир номутаносибликлар кўрсатиб берилган. Шунингдек, ўзбек адабиётидаги бадиий воқеалик таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: давр руҳи, давр нафаси, даврнинг адабий тили тушунчаси, турли-иборалар, гаплар, қочириملар, сўз ўйинлари, кенг кўламли фикрлаш

ВЫРАЖЕНИЕ ФОРМЫ ОБРАЩЕНИЯ В ПЕРЕВОДАХ ЮМОРИСТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ МАРКА ТВЕНА

Толибжанов Бахромжон Махмудханович
Наманганский государственный университет
Преподаватель

Аннотация: В статье обсуждается связь между переводом народных артефактов и внедрением общегосударственного культурного наследия. В нём даны работы М.Твена, которые сравниваются с переводом текста на узбекский язык, а также показаны достижения в переводе и некоторые расхождения. Также произведен художественный анализ узбекской литературы.

Ключевые слова: Дух эпохи, мгновение эры, понятие литературного языка эры, разные выражения, предложения, игры слов, масштабное мышление

EXPRESSING THE FORMS OF ADDRESSING IN THE TRANSLATIONS OF MARK TWIN'S HUMORISTIC WORKS

Tolibjanov Bahrom Maxmudxanovich
Namangan state university
Teacher

Annotation: The article discusses the relationship between the transfer of folk artifacts and the introduction of national cultural heritage. It contains the works of M. Twain, which are compared with the translation of the text into the Uzbek language, as well as achievements in translation and some discrepancies. Also, the fiction similarity has been analyzed in Uzbek literature.

Keywords: the spirit of the era, instant of the era, the concept of the literary language of the period, different expressions, sentences, word games, inclusive thinking

Eng yangi davr chet el adabiyotidagi yetakchi adabiy oqim - tanqidiy realizm bo'lib qoldi. Bu oqim yozuvchilari XIX asrning birinchi yarmida rivojlangan klassik realizm vakillari Stendal, Balzak, Dikens va boshqa adiblarning an'analariga asoslanganlari holda, o'sha davrning o'ziga xos belgilarini ham ifodalaydilar. Uning asosiy belgilari imperialistik



hukmronlik, kapitalistik eksplutatsiya va qullikka qarshi ommada tug'ilgan nafratni aks ettirishda ko'rinadi. XIX asr oxiridagi Amerika realistik adabiyotining mashhur vakillaridan biri Mark Tvendir.

Adabiy taxallusi Mark Tven bo'lgan Semyuel Lengxorn Klemens Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili o'z zamonasi burjua jamiyati illatlarini fosh etgan satirik va realist yozuvchidir. U Amerika adabiyotida eng buyuk yumorist adib sifatida tanilgan.

Uilyam Folkner, "Mark Tven birinchi chinakam amerikalik yozuvchi va biz bundan buyon uning merosxo'rlari bo'lganmiz" deb yozgan. Asrimizning buyuk adiblaridan biri Ernest Xeminguey Mark Tvenning "Geklberri Finn" asariga yuksak baho berib, bunday degan edi: "Butun hozirgi zamon Amerika adabiyoti birgina "Geklberri Finni" deb atalmish kitobdan iboratdir..." Rus yozuvchilari orasida Maksim Gorkiy va Aleksandr Kuprin, Mark Tven haqida juda iliq fikrlarni gapirishgan.

Mark Tven hikoyalarda yumorning kuchli hajviyaga aylanishi, folklor sujeti asosida yaratilgan "Kalaverasdan chiqqan mashhur sakrovchi qurbaqa" asari (1865) da yaqqol aks etgan. Yozuvchining Yevropa va Falastin bo'ylab sayohatlari taassurotlari "Chet ellardagi soddadil kishilar" (1869), "Toblanganlar" (1872) kabi kitoblarida ifodalangan. Ch.D.Uorner bilan hamkorlikda yaratgan "Zarhal asr" romani (1873) mamlakat siyosiy hayotini kuchli satirik yo'nalishda fosh etadi. "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" (1876), "Geklberri Finnining boshidan kechirganlari" (1884), "Qirol Artur saroyidagi Konnektikutlik yanki" (1889) kabi romanlari, "Shaxzoda va gado" (1882) povesti va boshqa asarlarida "Amerikacha hayot" ning keng manzaralari o'z ifodasini topdi.

Jahon taraqqiyparvar adabiyotining buyuk namoyondasi Mark Tvenning realizm ruhi bilan sug'orilgan roman va povestlari, sarguzasht hikoyalari, esse va ocherklari zamonaviy kitobxonlar orasida ham mashhur bo'lib, ularning samimiy muhabbatini qozongan.

Klemens dastlab Nevadadagi gazeta uchun asar yozadi va keyin San Fransiskoga ko'chib keatdi. Mahalliy gazetalarda harf teruvchiga shogird bo'lib ishlab yurganlaridayoq dastlabki ocherklarini yozib, matbuotda e'lon qildiradi. U yoshligidanoq kitob o'qishni sevardi, keyinchalik mutolaaga jiddiy yondashib, tanqidiy maqolalar ham yoza boshlaydi. 1853 yildan boshlab yosh yozuvchi o'z mamlakati — AQSh bo'ylab kezib yuradi. Ana shu safar chog'ida Tven sayyor "harf teruvchi" ham bo'ladi, kemalarda lotsmanlarga shogirdlik qiladi, hatto o'zi lotsman bo'lib, Missisipi daryosida kema haydaydi. G'aroyib sayohat kezlarida bo'lajak buyuk yozuvchi hayotning achchiq-chuchuk saboqlarini boshidan kechiradi, inson psixologiyasini o'rganadi, hayotga, jamiyat hamda haqiqatga munosabati shakllanib boradi. Yosh bo'lishiga qaramay, chuqur realizm ruhi bilan sug'orilgan hajviy hikoyalar yozadi.

Ko'p o'tmay, Mark Tven dunyo bo'ylab sayohatga o'tlanadi: Yevropani kezib, Italiya, Fransiya, Gretsiya singari ko'p yurtlarga boradi, ayrim Sharq mamlakatlarini ham aylanib chiqadi. Bu sayohatlar Tven ijodiga katta ta'sir qiladi. Yuksak iste'dod egasi, hajviyotga boy so'z ustasi ko'plab xalqlarning hayoti va tarixini, og'zaki ijodiyotini chuqur o'rganadi. Pirovard-natijada Mark Tvenning o'nlab asarlari Amerikada va butun dunyoda katta shuhrat qozonadi. U hukmron sinfga, din aqidalariga nisbatan tanqidiy nuqtai nazardan yondoshib, nohaqlikni, axloqiy pastkashlikni, zulm va istibdodni hajv qiladi.

Yozuvchi o'zining avtobiografik asari "Tom Soyer"da o'quvchilarni o'zining bolalik davrlariga sayohat qildiradi. Tinib-tinchimas, shumtaka Tomning ajoyib-g'aroyib sarguzashtlari bir qarashda har tomondan cheklangan turmush tarzini buzishga intilishdek



tuyulsa-da, aslida asarda katta hayot manzarasi chiziladi. Ijtimoiy tengsizlik qattiq qoralanadi. O'z xalqini e'zozlagan, uning g'am-tashvishlarini o'zinikidek qabul etgan Tven "Geklberri Finn" romanida oddiy mehnatkash xalqqa bo'lgan samimiy mehr-muhabbatini yorqin aks ettirgan amerikacha hayot tarzi, zolimlik va ochko'zlikni qahr bilan fosh qilgan.

Romanning yana bir muhim jihati shundan iboratki, Mark Tven cherkovning insoniyat taraqqiyoti yo'lga to'g'anoq bo'lishini, hukmron sinf tomonida turib xalq qonini so'radigan tekinox'r bir maraz ekanligini yorqin bo'yoqlar bilan chizib beradi; cherkovning kirdikorlarini fosh etib, uni qattiq tanqid tig'i ostiga oladi.

Jahon taraqqiyparvar adabiyotining buyuk namoyondasi Mark Tvenning realizm ruhi bilan sug'orilgan asarlari ko'p tillarga tarjima etilgan va o'quvchilarning samimiy muhabbatiga sazovor bo'lgan. Buyuk hajvchi, tanqidiy realizm oqimining yirik vakili Mark Tven jahon bolalar adabiyotining klassigi sifatida tan olingandir. Butun umri chegaralarda omad izlab o'tgan, biroq bunga erishish uchun vijdoni o'ta soflik qilgan sudya Klemens Mark Tven hali 12 ga to'lmasdanoq hayotdan ko'z yumgan edi. Tom Soyer haqida qissada madh etilgan beg'ubor, beg'am bolalik tugab, mashaqqatli yillar boshlandi. Tven tipografiyada shogird, so'ngra harf teruvchi, keyinroq akasi Orion Gannibalda nashr etadigan gazetaning xodimi bo'lib ishladi. 1857 yilda u mashhur lotsman Biksbi bilan tanishdi va unga shogird tushdi, bir yil o'tib esa daryodan ilk bor kemani o'zi olib o'tdi. U to fuqarolar urushigacha lotsmanlik xizmatida bo'ldi.

Yozuvchining Mark Tven taxallusini olishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ikki dengiz o'lchovi-yo'l yaxshi degan ma'noni bildirar edi. Shimol bilan janub o'rtasidagi grajdanlar urushi (1861-1865) natijasida Missisipi daryosida kema qatnovi to'xtab qolgandan so'ng Mark Tven uzoq g'arbga Nevadaga borib, oltin izlovchilar orasida yuradi. Lekin uning bu intilishlari natija bermagach, endi jurnalistika bilan shug'ullanadi. U bosmaxonada ishlagan kezlaridayoq maqola, ocherk, pamflet, feletonlar yozgan edi. Bu sohada ma'lum tajribaga ega bo'lishi tufayli u 60 yillar o'rtasida yumoristik hikoyalar ustasi sifatida taniladi.

Tven qalamining ba'zi o'ziga xos xususiyatlarini "tarashlab" sayqal berishga o'sha paytda Kaliforniyada unga homiylik qiluvchi yozuvchi Bret Gart yordam berdi. Ayni shu paytda betakror va mohiyatan o'ta amerikacha badiiy hodisa bo'lgan Tven yumori shakllanadi. 1865 yilda "Kalaverslik mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa" hikoyasning nashr qilinishi bilan yozuvchi Mark Tven tug'iladi.

Tven ijodining o'ziga xos xarakterli xususiyati bo'lgan, voqealarni yumoristik tarzda bayon qilish usuli bu davrda yaratilgan asarlariga ham xosdir. Biroq endi bu yumor tobora achchiq va zaharxanda bo'la boradi. Ijodiy faoliyatining eng so'nggi davri Tven satirasi barkamol bo'lgan payt hisoblanadi.

Adibning asarlari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan, shu jumladan o'zbek shoir va yozuvchilari ham Tven asarlarini bir necha bor o'zbek tiliga o'girishgan. O'zbek bolalar adabiyotining taniqli yozuvchisi Ilyos muslim ham Tven asarlaridan bo'lmish "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" qissasini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Mark Tven:

"Say, Jim, I'll fetch the water if you'll whitewash some." Jim shook his head and said:

"Can't, Mars Tom. Ole missis, she tole me I got to go an' git dis water an' not stop foolin' roun' wid anybody. She say she spec' Mars Tom gwine to ax me to whitewash, an' so she tole me go 'long an' 'tend to my own business—she 'lowed *she'd* 'tend to de whitewashin'."

K.I. Chukovskiy tarjimasi:



— Слушай-ка, Джим,— сказал Том,— хочешь, побели тут немножко, а за водой сбегаю я. Джим покачал головой и сказал:

— **Не могу, масса Том! Старая хозяйка** велела, чтобы я шел прямо к насосу и ни с кем не останавливался по пути. Она говорит: «Я уж знаю,— говорит,— что масса Том будет звать тебя белить забор, так ты его не слушай, а иди своей дорогой». Она говорит: «Я сама,— говорит,— пойду посмотреть, как он будет белить».

N.A. Doruzes tarjiması:

— Слышь-ка, Джим! Давай я сбегаю за водой, а ты тут пока немножко побели.

— **Как можно, мистер Том! Старая хозяйка** велела мне мигом принести воду и, сохрани бог, нигде не застревать по дороге. Она еще сказала, что мистер Том наверняка позовет меня красить забор, так чтоб я делал свое дело, не совал нос куда не просят, а уж насчет забора она сама распорядится.

Ilyos Muslim tarjiması:

Menga qara Jim, agar хо'р desang, sen bu yerda bir pas devorni oqlab tur, sening o'rninga men suvga borib kelayin, nima deysan?

Yo'q, Tom boyvachcha, oyim meni suvga yuborayotganida: "To'g'ri bor, hech kim bilan yo'lda so'zlashma", deb tayinlab qolgan. U menga "Tom boyvachcha seni devor oqlagani chaqirsa, men buni yaxshi bilaman, sen uning so'ziga quloq solmay, ishinga bor", deb qayta-qayta tayinlagan. U yana: "Tomning devor oqlayotganini o'zim borib ko'rib kelaman" ham dedi.

Insoniyat ixtiyorida mavjud eng mukammal ishlangan tilde ham tabiatdagi turli-tuman hodisalar, hatto insonning ruhiy kechinmalari bilan bog'liq juda ko'p sirli holatlar, his-tuyg'ularning nomlari, atamalari mavjud emas. Har bir tilda o'sha tilning sohibi hisoblanmish xalqning o'zi ko'proq mashg'ul bo'lgan xo'jalik, ishlab chiqarish sohalari hamda uni o'rab turgan tabiiy muhitga aloqador so'zlar, atamalar, iboralar boshqa tillarga nisbatan ko'proq yoki kamroq bo'lishi mumkin.

Asliyatrdagi **Mars va Ole missis** so'zlari qadimgi ingliz tilidagi **mister** va **old** yani o'zbek tiliga **janob, ho'jayin** hamda **qari ho'jayin** degan ma'nolarni ifodalaydi. O'sha davrlarda Amerikada negrlar hizmatkor hisoblanib, oq tanlilarga nisbatan "mister" ya'ni janob deb murojaat qilishgan. Rus tarjimoni K.I. Chukovskiy "**mars**" so'zini **масса** deb tarjima qilib saxifa ostida uning ma'nosini izohlab o'tgan. N.A. Doruzes tarjimasida esa "**мистер**" deb rus tiliga to'g'ri o'g'irgan. **Ole missis** so'zini ikki rus tarjimoni "**Старая хозяйка**" deb rus tiliga to'g'ri tarjima qilishgan. Ilyos Muslim tarjimasida **mars** so'zini **boyvachcha, Ole missis** so'zini esa **oyim** deb tarjima qilgan. Va holanki qaxramon Tom o'gay holasi qo'lida qolgan yetim bola edi. Ole missi, bu yerda Jimning **oyisi** emas balki uning ho'jayinidir.

Turgan gap, tarjimada ham tarjima bor. Bu yerda chinakkam adekvat tarjima bilan baholi qudrat, ya'ni imkon chegarasidagi tarjimani bir-biridan farqlamoq kerak. Shuning uchun ham yuqoridagi o'zbekcha tarjimani u qadar maqsadga maqbul deb bo'lmaydi.